XALQ DEPUTATLARI OHANGARON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 5-fevral VII-4-11-10-134-K/25 Ohangaron tumani

Ohangaron tumanidan Ohangaron shahriga o‘tkazilayotgan yer uchastkasi chegarasini belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-oktabrdagi “Toshkent viloyatining Ohangaron tumani va Ohangaron shahrini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 674-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-oktabrdagi “Toshkent viloyatining Ohangaron tumani va Ohangaron shahrini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 674-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ohangaron tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil “17” dekabrdagi 104 - sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

3. Ohangaron tuman “Ubayd” mahalla fuqorolar yig‘ini hududining qisman 293,48 gektar yer uchastkasini belgilangan tartibda Ohangaron shahri tarkibiga o‘tkazilishiga rozilik berilsin.

4. Ohangaron tumanidan Ohangaron shahriga o‘tkazilayotgan yer uchastkasi chegara chizig‘i tavsifi **1-ilovaga**, kartografik chizmasi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Sessiya raisi



RAXMANOVA NAZIRA AKILXANOVNA

Xalq deputatlari Ohangaron tumani
Kengashining
2025-yil 5-fevraldagi
VII-4-11-10-134-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati Ohangaron tumanidan Ohanagaron shahriga oʻtkazilayotgan yer uchastkasining maʻmuriy-hududiy chegara chizigʻining TAVSIFI

Ohangaron shahri hamda Ohangaron, Piskent tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, A-373a avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan nuqta boshlangʻich 1 - nuqta deb qabul qilindi *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°54ʻ10,070", sharqiy uzoqlik koordinatalari 69°35ʻ59,639").*

A dan B gacha Ohangaron tumani yerlari bilan 1 - 17 - nuqtalar oralig'ida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizigʻi A-373a avtomobil yoʻlining sharq tomoni bilan umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2417 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°55ʻ27,434", sharqiy uzoqlik 69°35ʻ49,242").*

2-nuqtadan chegara chizigʻi A-373a avtomobil yoʻlidan temir yoʻliga oʻtib, keyin temir yoʻlining janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1254 metr masofani oʻtib, temir yoʻli boʻyida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°55ʻ18,613", sharqiy uzoqlik 69°36ʻ41,536").*

3-nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻli boʻyidan tomorqa chegarasiga oʻtib, keyin tomorqa chegarasi boʻylab umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 358 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°55ʻ08,229", sharqiy uzoqlik 69°36ʻ36,534").*

4-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan tomorqa chegarasiga oʻtib, keyin tomorqa chegarasi boʻylab sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 610 metr masofada qishloq ichki yoʻliga oʻtib, soʻng yoʻlning janub tomoni bilan umumiy yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 532 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°54ʻ57,278", sharqiy uzoqlik 69°37ʻ22,488").*

5-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlidan dala tuproq yoʻliga oʻtib, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 630 metr masofani oʻtib, A-373 avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°54ʻ38,890", sharqiy uzoqlik 69°37ʻ11,610").*

6-nuqtadan chegara chizigʻi A-373 avtomobil yoʻlining shimol tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1197 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°54ʻ55,743", sharqiy uzoqlik 69°36ʻ25,702").*

7-nuqtadan chegara chizigʻi A-373 avtomobil yoʻlini kesib oʻtadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin tomorqa chegarasi boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 110 metr, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 558 metr masofani oʻtib, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 6 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°54ʻ38,370", sharqiy uzoqlik 69°36ʻ35,976").*

8-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 856 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°54ʻ12,880", sharqiy uzoqlik 69°36ʻ48,649").*

9-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlidan tomorqa devoriga oʻtib, keyin tomorqa devori boʻylab umumiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 168 metr masofani oʻtib, soʻngra qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtadi va tomorqa devori boʻylab janubiy yoʻnalishda 110 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 123 metr masofani oʻtib, tomorqa devori boʻyida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°54ʻ08,821", sharqiy uzoqlik 69°36ʻ36,395").*

10-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devori boʻylab janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 14 metr masofada qabriston devoriga oʻtib, keyin qabriston devori boʻylab boʻylab umumiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 36 metr, soʻng janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 112 metr masofani oʻtib, ferma devori boʻyida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°54ʻ05,504", sharqiy uzoqlik 69°36ʻ32,779").*

11-nuqtadan chegara chizigʻi qabriston devoridan tovuq fermasi devoriga oʻtib, keyin tovuq fermasi devori boʻylab umumiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 753 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, soʻng yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 12 metr, soʻngra yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 56 metr masofani oʻtib, A-373a avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan boshlangʻich 1-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°54ʻ10,070", sharqiy uzoqlik 69°35ʻ59,639").*

Xalq deputatlari Ohangaron tumani
Kengashining
2025-yil 5-fevraldagi
VII-4-11-10-134-K/25 -son qaroriga
2-ilova

